NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar-iyun

## Asosiy tarkib




Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

## Dastlabki ma’lumotlar

Namangan viloyati bo‘yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 8 139,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 13,8 % ga ko‘paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 734,5 mlrd. so`mni (o‘sish sur’ati 147,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 404,6 mlrd. so‘mni (11,3 % ga ko‘paygan). Shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 108,5 mlrd. so‘mni (16,3 % ga ko‘paydi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda




## o‘sish (o‘zgarish) sur’atlari, foizda








NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar-iyun

## UMUMIY MA’LUMOT

Namangan viloyati bo‘yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 139,1**mlrd. so‘m ni tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021 - yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 13,8% ni tashkil etdi.

- Namangan sh. 3 643,0
- Chust 855,5
- To`raqo`rg`on 552,2
- Yangiqorg`on 383,3
- Pop 423,8
- Uychi 358,2
- Kosonsoy 328,5
- Chortoq 327,4
- Uchqo`rg`on 316,7
- Mingbuloq 233,7

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda ko‘payish sur’atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,0%** va yirik korxonalar hissasiga **9,0 %** to‘g‘ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo`yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 44,8**%** ulush 3 643,0mlrd. so‘m ni tashkil etdi.

## ENG QUYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida 2,9 **%** ulush bilan 233,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar -iyun







Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar –iyun oylari yakuniga ko‘ra, 7 404,6 mlrd. so‘m ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 11,3 % ga ko‘paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 91,0 % ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Uychi (99,0 %) Kosonsoy (98,8 %), Yangiqorg‘on (97,7 %) , Chortoq (97,3 %), Mingbuloq (97,1 %) tumanlarida yuqori bo‘lgan.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI



2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko‘payish sur’atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Chust (125,4%) To‘raqo‘rg‘on (120,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’atlari,** foizda




| | Jami, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Namangan viloyati | 8 139,1 | 113,8 | 734,5 | 147,8 | 7 404,6 | 111,3 |
| Namangan.sh | 3 643,0 | 112,5 | 297,3 | 140,1 | 3 345,8 | 110,6 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Mingbuloq | 233,7 | 112,0 | 6,7 | 236,0 | 226,9 | 110,3 |
| Kosonsoy | 332,5 | 110,7 | 4,0 | 104,7 | 328,5 | 110,7 |
| Namangan | 368,9 | 113,3 | 20,9 | 214,3 | 348,0 | 110,2 |
| Norin | 340,3 | 112,0 | 25,6 | 94,0 | 314,7 | 113,8 |
| Pop | 423,8 | 106,7 | 19,7 | 57,4 | 404,1 | 111,3 |
| To‘raqo‘rg‘on | 552,2 | 120,8 | 61,6 | 188,0 | 490,6 | 115,7 |
| Uychi | 361,9 | 110,3 | 3,7 | 98,4 | 358,2 | 110,4 |
| Uchqo‘rg‘on | 316,7 | 113,5 | 18,0 | 101,3 | 298,7 | 114,3 |
| Chortoq | 327,4 | 111,2 | 8,7 | 102,1 | 318,6 | 111,5 |
| Chust | 855,5 | 125,4 | 259,4 | 193,2 | 596,1 | 108,8 |
| Yangiqo‘rg‘on | 383,3 | 114,0 | 8,9 | 92,1 | 374,4 | 114,6 |

NAMANGAN VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

NAMANGAN VILOYATINING
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar- iyun

## Yirik korxonalar

**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** foizda







## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** foizda









Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 47,8 **%** ga ko‘paygan va **734,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,0 %** ulushiga to‘g‘ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra **7 404,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **11,3** % ga ko‘paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,0** % ni tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)






Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Uychi, (99,0 %), Kosonsoy (98,8 %), va Yangiqo‘rg‘on ( 97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (30,3 %), To‘raqo‘rg‘on (11,2 %), Namangan sh.(8,2 %) tumanlarida kuzatildi.



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAMANGAN VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

**NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2022- yil yanvar- iyun

2022- yil yanvar-iyun oylari holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 763,5** ming so‘m (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 11,3 % ga ko‘paygan). Chust (123,0 %), To‘raqo‘rg‘on (117,9 %), Uchqo‘rg‘on (111,4 %) va Namangan (110,7 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlarida ko‘payish sur’atlari kuzatildi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri ( 5 479,1 ming so‘m), Chust (3 104,0 ming so‘m) va To‘raqo‘rg‘on (2 350,9 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




| | **Hajm,** ming so‘m | **2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan,** % da |
|---|---|---|
| **Namangan viloyati** | 2 763,5 | 111,3 |
| **Namangan sh.** | 5 479,1 | 109,8 |
| **tumanlar:** | | |
| Mingbuloq | 1 772,8 | 109,6 |
| Kosonsoy | 1 519,6 | 108,1 |
| Namangan | 1 996,0 | 110,7 |
| Norin | 2 002,8 | 109,9 |
| Pop | 1 860,4 | 104,6 |
| To‘raqo‘rg‘on | 2 350,9 | 117,9 |
| Uychi | 1 621,4 | 107,7 |
| Uchqo‘rg‘on | 1 771,5 | 111,4 |
| Chortoq | 1 582,3 | 109,1 |
| Chust | 3 104,0 | 123,0 |
| Yangiqo‘rg‘on | 1 682,5 | 111,5 |

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI



2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **136,7** mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan **16,7 %** ga ko‘paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **71,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o‘sish sur’atlari,** foizda




| | Jami, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Namangan viloyati | 136,7 | 116,7 | 20,3 | 296,2 | 97,4 | 104,7 |
| Namangan sh. | 78,5 | 116,3 | 14,9 | 218,0 | 54,6 | 104,4 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Mingbuloq | 3,3 | 108,1 | 0,0 | 0,0 | 2,6 | 106,3 |
| Kosonsoy | 3,2 | 106,2 | 0,0 | 0,0 | 2,3 | 104,4 |
| Namangan | 9,5 | 132,5 | 1,9 | 0,0 | 6,7 | 104,7 |
| Norin | 2,7 | 111,4 | 0,0 | 0,0 | 1,8 | 110,1 |
| Pop | 7,1 | 105,5 | 0,0 | 0,0 | 6,2 | 104,4 |
| To‘raqo‘rg‘on | 4,1 | 107,3 | 0,0 | 0,0 | 3,2 | 106,1 |
| Uychi | 2,2 | 107,8 | 0,0 | 0,0 | 1,3 | 107,5 |
| Uchqo‘rg‘on | 3,8 | 107,6 | 0,0 | 0,0 | 2,9 | 105,4 |
| Chortoq | 3,7 | 106,2 | 0,0 | 0,0 | 2,8 | 104,4 |
| Chust | 16,0 | 134,5 | 3,5 | 0,0 | 11,4 | 104,6 |
| Yangiqo‘rg‘on | 2,6 | 106,9 | 0,0 | 0,0 | 1,7 | 104,4 |

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



## Asosiy tarkib, foizda







Namangan viloyati bo‘yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 695,2** mlrd. so‘m ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **23,2 %** ga ko‘paygan Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **812,6** mlrd. so‘mni (**34,2 %** ga ko‘paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 882,6** mlrd. so‘mni (**120,5 %** ga ko‘paygan).

## o‘sish (o‘zgarish) sur’atlari, foizda




## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

| | |
|---|---|
| Ulgurji savdo | 3 695,2mlrd.so‘m, 100 % |
| Yirik korxonalar | 812,6 mlrd. so‘m, 22,0% |
| Mikrofirma va kichik korxonalar | 2 882,6 mlrd. so‘m 78,0% |

## Eng yuqori ulushga ega hududlar



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega yirik korxonalar Kosonsoy(106,5 m), Pop(70,9 m), Namangan(51,2 m ) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur’atlari, Namangan(168,8 %), Kosonsoy(146,5 %), Mingbuloq (137,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o‘sish sur’atlari,** foizda




| | Jami, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Namangan viloyati | 3695,2 | 123,2 | 812,6 | 134,2 | 2882,6 | 120,5 |
| Namangan.sh | 2414,5 | 127,7 | 416,3 | 249,2 | 1998,3 | 115,9 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Mingbuloq | 40,7 | 137,7 | 0,0 | 137,7 | 40,7 | 137,7 |
| Kosonsoy | 114,5 | 146,5 | 14,6 | 10654,9 | 100,0 | 128,1 |
| Namangan | 118,3 | 168,8 | 32,3 | 5122,4 | 86,0 | 123,8 |
| Norin | 136,3 | 133,9 | 39,3 | 144,8 | 97,0 | 129,9 |
| Pop | 131,7 | 158,8 | 37,4 | 7090,0 | 94,3 | 114,4 |
| To‘raqo‘rg‘on | 172,8 | 75,0 | 115,7 | 66,4 | 57,1 | 101,6 |
| Uychi | 189,3 | 113,9 | 46,6 | 50,1 | 142,6 | 195,1 |
| Uchqo‘rg‘on | 80,3 | 126,8 | 53,2 | 128,1 | 27,1 | 124,3 |
| Chortoq | 106,5 | 104,5 | 0,0 | 0,0 | 106,5 | 138,4 |
| Chust | 85,8 | 84,5 | 57,2 | 75,4 | 28,6 | 111,5 |
| Yangiqo‘rg‘on | 104,5 | 129,4 | 0,0 | 0,0 | 104,5 | 129,4 |

NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

**NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2022- yil yanvar- iyun









Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra, **3 695,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan **23,2** % ga ko‘paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 78,0 **%** ni tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo‘rg‘on, Chortoq, (100,0 %), Mingbuloq, (99,9 %), tumanlarida yuqori bo‘lgan. Eng past ulush esa Chust (33,3 %) tumaniga to‘g‘ri keldi.


**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi**

**Tel : (69)-211-72-00**